

Xalikov Sindorkul Ravshanovich

Jizzax politexnika instituti,
Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Jizzax, O'zbekiston

**GUMBAZ USTASI SIFATIDA SHUXRAT QOZONGAN USTA
YUSUFALI MUSAEVNING XAYOT VA IJODI**

Annotatsiya: Maqolada [Xalq](#) ustasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi Usta Yusufali Musaevning O'rta osiyo va shu jumladan O'zbekiston sharoitiga mos bo'lgan yog'ochsiz tomlar yaratish va tanqis materiallarni tejash ishiga qo'shgan katta xissa va uni qayta tiklash, ta'mirlashda olib borilgan ishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Gumbazli bino, madrasa, maqbara, yodgorlik, qurilish, Usta, tom.

**THE LIFE AND WORK OF MASTER YUSUFALI MUSAEV, WHO
ACHIEVED GLORY AS A DOMED MASTER**

Khalikov Sindorkul Ravshanovich

Jizzakh Polytechnic Institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Architectural Sciences, Associate Professor
Jizzakh, Uzbekistan

Abstract: The article covers the work of Master Yusufali Musaev, an honorary member of the Academy of Sciences of Uzbekistan, who contributed to the work of creating timeless roofs suitable for the conditions of Central Asia and including Uzbekistan and saving scarce materials, and on its restoration, repair.

Keywords: Domed building, madrasa, mausoleum, monument, construction, Master, roof.

Kirish: Musaev Yusufali (1869 - Andijon - 1947.6.12) - me'mor, [xalq](#) ustasi. Yusufali Musaev 1870-yilda Shahrixonda tug'ilgan. Otas zamonasining yetuk

me'morlaridan bo'lib, Qo'qon shahrida Umarxon saroyini bunyod etishda faol qatnashgan. Yosh Yusufali quruvchilik san'atini otasi va [akasi](#) Muhammad [Muso](#) va akasi Isaxon Musaevdan o'rganib, Marg'ilon, Farg'ona, O'sh, Asaka va Andijon shaharlarida o'nlab machit va hammomlar qurdi. Ayniqsa Andijon shahridagi Jomiy machiti va uning 36 metr balandlikda qurilgan bahaybat minorasini 1902-yilda qurib bitkazdi. Andijonda 1902-yildagi bo'lgan qattiq zilzila Usta Yusufalining qo'li tekkan jomiy machiti va uning minorasiga shikast yetkazaolmadi. Usta san'atini o'shandan ko'rgan xalqimiz hali-hali uning nomini esda saqlab keladi.

Usta Yusufali Musaev millionlab zaxmatkashlar kabi o'z baxtini Ulug' Oktyabr inqilobidan keyin topdi. Usta Toshkeitga chaqiriladi. Bu yerda usta hozirgi Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri bignosini bunyod etishda, Samarqandda o'nlab tarixiy obidalarni tiklashda faol ishtirok etadi. Hukumatimiz unga mehnatlarinni munosib tag'dirladi, 1943-yilda esa Musaev O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi qilib saylandi va Mexnat Qizil Bayroq ordeni bilan hamda O'zbekiston SSR Oliy Soveti faxriy yorlig'i bilan taqdirlanadi. Me'mor poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri binosi qurilishida ham o'z san'atini namoyish etadi. Usta Yusufali Musaev 1947-yilda Andijon shahrida vafot etadi [5].

Musaev [bino](#) qurilishida 1—1,5 m qalinlikdagi devorlarni ixchamlashtirdi, yo'g'on va og'ir ravoqlar o'rniga zinali ravoqlar qo'lladi. Musaev xilma-xil [gumbaz](#) tomlar yaratish bilan birga gumbazlar tuzilishini ma'lum tartibga soldi, binoning ayrim murakkab qismlari va loyihasini yaratdi va gumbaz ustasi sifatida shuxrat qozondi. Musaev qurgan binolar yorug', ixcham va ko'rkamligi bilan Samarqand, [Buxoro](#) va [Xiva](#) ustalari qurgan binolardan farq qiladi. [Farg'ona](#) vodiysidagi 40 ga yaqin [hammom](#) uning loyihasi va rahbarligida bunyod etilgan. [Muqimiy teatri](#) binosi Musaev rahbarligida shogirdlari [usta](#) Eshonxon, Ivan Minakov va Usta Ergash Xojilar bilan hamkorlikda qurilgan yirik binolardan biridir.

O'zbekistonda xammom binolarini quruchi malakali ustalar kup. Bu sohaning eng keksa mohir ustalaridan biri usta, Yusufali Musoev edi. Keyingi yillarda uning

loyidasi bilan qurilgan xammom binolarini Farg‘ona vodiysida kup uchratish mumkin.

O‘tgan asrning birinchi yarmida usta un beshga yaqin yirik xammom binolarini qurdi. Usto Yusufali chizgan xammom binolarining loyihasi kurkam bulib, ayrim xonalardan foydalanishda katta qulaylik beradi. Uning chizgan loyidalarida binokorlik san’atining ayrim tamoillari tula aks etgan. Usta Yusufali qurgan yangi xammom binolarida xonalarning soni ortib, binoning loyihasi birmuncha takomillashgan. Ayollar bo‘lmasi uchun alodida xonalar ajratilgan. Chizmalarni ustaning o‘zi ishlagan. Ustaning arxividan uning o‘z quli bilan chizgan kup bino chizmalari saqlangan. Usta Yusufali har bir yangi ishni boshlashda yosh ustalar bilan suxbatlashar va ularning bergan maslahatlarini diqqat bilan tinglar edi. Uning mohir quli bilan yaratilgan binolarni O‘zbekistonning ko‘p shaharlarida hozir ham uchratish mumkin [6].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida qurilgan katta xonalarning tomlarini 1 – 1 ½ g‘isht (32-48 sm) qalinlikda gumbaz qilib yopish rasm bo‘lgan edi. Odatda gumbaz tomonlarning diametri 8 gaz (5,7m) dan oshmasligi ko‘zda tutilar edi. Agar gumbaz diametri 8 gazdan ortiq bo‘lsa, gumbazning 16 – 17 qatorigacha 1 ½ - 2 g‘isht qalinlikda, so‘ngi qatorlari esa, 1 g‘isht (eski o‘lchovda, 32 – 38 sm) qilib olinar edi. Binoning gumbaz tomi qalin qilib yopilsa, devorlari ham qalin bo‘ladi. Binobarin, g‘isht ham birnecha marta ko‘p sarf etiladi.

Keyingi yillarda qurilgan binolarning tomlarini yarim g‘isht (12 sm), hatto chorak g‘isht (6,5 sm) qalinlikda yopish usuli qo‘llanildi (Usto Yusufali Musaev 1869 - 1947) Usta Yusufali yaratgan har turdagi yupqa gumbaz tomlar: charxi gumbaz, balxi gumbaz, chortark gumbaz va chorkunjak gumbazlar g‘ishkorlik san’atiga yangilik bo‘ldib kirdi. Usto Yusufali katta xonalarning tomini gumbaz qilib yopishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni qobirg‘ali va ikki og‘mali gumbaz tomlar qurish yo‘li bilan bartaraf qildi. Gumbaz tomining qobirg‘alari uning negizidan tortib to uchiga qadar yetkazib quriladi.

Usta Yusufali qobirg‘ali gumbaz tomlarda qobirg‘alarning sonini odatda to‘rt yoki sakkiztadan iborat qilib qurar edi. Ayrim binolarda esa tomlarni sesu (uch qirra) va teskari gajjak gumbaz qilib yopish usulini ko‘rsatib berdi. Usta Yusufali xilma – xil gumbaz tomlar yaratish bilan birga gumbazlarning tuzilishini (konstruksiyasini) ma‘lum tartibga soldi va binoning ayrim murakkab qismlarining sxemasini chizdi. Xalq ustalari ko‘z mo‘ljali bilan quradigan gumbaz tomlarning og‘maligini usta Yusufali Lingaga (shablon)ga oldi, ayniqsa chorkunjak va ikki og‘malik murakkab gumbaz tomlar lingasining sxemasini o‘z qo‘li bilan chizib ko‘rsatdi.

Usta bino qurishda gumbazni binoning tarxiga va turiga qarab tanlar edi; masalan: bo‘yi va eni barxil bo‘lgan chorburchak binolarning tomini charxi gumbaz qilib, bo‘yi enidan uzunroq bo‘lgan va pastqam bino tomlarini esa, bilxi gumbaz qilib yopardi.

Charxi gumbazning balandligi gumbazning yarim kengligidan ortiq bo‘lsa, “Mirzaiy” gumbaz, deb ataladi; ammo usta bu gumbazning balandligini odatda enining yarmidan ham kam qilib yopa olar edi.

Usta Yusufali bu usulda yopishni xatto “Shalg‘amiy” gumbazda ham qo‘lladi. Usta Yusufali turarjoy binolarining tomini to‘rt qirali pastak – “Chortark” gumbaz qilib jamoat binolarining tomlarini esa, charxi va chorkunjak gumbaz qilib, eng tor kichik xonalarning tomini “zarbaliq” gumbaz, “beshikcha” gumbaz, “gavra” gumbaz qilib yopishni ham qo‘llagan edi. Usta Yusufali bino tomlarini gumbaz qilib yopishda ichki ravoq va gajjaklarning o‘rnatilishiga alohida e‘tibor bergan. U kichik chorburchak binolarda – chorravoq (to‘rtravoq), mehrobli binolarda – xashtrovoq (sakkiz ravoq), katta binolarda esa – devorga o‘n olti ravoq o‘rnatib, uning ustiga gumbaz tomini yopgan. Devor ravoqlari o‘rtasiga gajjak mindirib, gajjak bilan ravoq orasini uchburchak shaklida yupqa devor – xoshiya bilan to‘ldirar edi. Ravoq va xoshiyalar orasiga ganchdan o‘yib gul solinardi.

Xulosa: O‘rta Osiyoda shu jumladan O‘zbekistonda yog‘och, temir va shu kabi binokorlik materiallarining kamchil bo‘lishi, tomlarni yog‘och o‘rnida g‘isht bilan, ya‘ni gumbaz qilib yopish usullarining taraqqiy etishiga sabab bo‘lgan.

Xozirga qadar ma'lum bo'lgan bosma va qo'lyozma materiallarda xalq ustalarining ijodiy tajribalarining asosan bir tomoni, ya'ni binoning loyihasi va uning bezatilishi haqida ma'lumotlar berilib kelingan, ammo gumbaz va xiyobon tomlarni yopishda, ravoqlarni o'rnatishda texnika qoidalariga xos ayrim konstruksiyalar haqida yetarli darajada tekshirish ishlari olib borilmagan.

Xalq ustalari yaratgan binolarning tuzilishi ma'lum qoidalarga asoslanib qurilgan. Chunki binoning har bir bo'lagi ma'lum bir nisbatda va ma'lum bir masshtabda olinib, ko'pchilik nusxalar esa geometrik shakllar asosida tuzilgan. Ayniqsa gumbaz tom poyasiga o'rnatilgan ravoq, gajjak va hoshiyalar fazoda xosil bo'lgan murakkab ulanmani tashkil etadilar.

Usta Yusufali halq ustalari tomonidan tarixiy yodgorliklarni ishlatilgan gumbaz va xiyobon g'isht tomlarni ixchamlashtirib, O'rta osiyo va shu jumladan O'zbekiston sharoitiga mos bo'lgan yog'ochsiz tomlar yaratish va tanqis materiallarni tejash ishiga katta xissa qo'shdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX - XV вв. М. "Наука". Главная редакция Восточной литературы. 1978.
2. Гаганов Р.И. Геометрический орнамент Средней Азии. В сб. №11. 1958.
3. Ашрабов А. Уста Юсуфали. Тошкент 1955.
4. А.Камолов. Қадимий Меъморчилигимиз геометрияси. Тошкент 1973.
5. Э.Қодиров ОБЩЕСТВЕНН Е НАУК И В УЗБЕКИСТАН И/1 .1971г.62-63-бет.
6. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари 2019-йил, №1 сон Жураева Е. Е. Ўрта осийё халқ хаммомларининг архитектураси ва конструктив ечимлари 25-бет.